

*Ayupov Ravshan Hamdamovich*

# GULLAR OLAMI

- *Atirgullar*
- *Gladioluslar*
- *Xrizantemalar*
- *Gulsafsarlar*
- *Gulchilikda innovatsion usullar*
- *Lola, Nartsiss va Giatsintlar*
- *Pionlar*
- *Astralar*

**Toshkent -2021**

UO‘K 635.91.075  
KBK 42.374

*“Yana bir hikmat bor: hazrati Odam –  
Bilim, aqlu-idrok sabab muhtaram”.*  
*«Qutadg‘u bilig» dan*

*Ayupov R. H.*  
*Gullar olami. – Toshkent: “Lesson press”, 2021. – 120 bet*

“*Gullar olami*” deb nomlangan ushbu amaliy qo‘llanmada gullarning eng ommabop hamda ko‘rkam turlarini parvarishlash va yetishtirish texnologiyalari haqida so‘z boradi. Har bir gulning biologik hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni turli muddatlarga, shu jumladan, yangi yil, 8-mart, Navro‘z bayrami, 1-aprel va 9-may muddatlariga ochiltirish usullari batafsil ko‘rib chiqilgan hamda ularga ishlov berish usullari atroflicha tushuntirilgan. Undan tashqari, qo‘llanmada ertaki muddatlarda gul yetishtirish bo‘yicha olingan amaliy tajribalar natijalari ham keltirilganki, ularni o‘rganish orqali gul yetishtirishning bir qancha nozik tomonlarini atroflicha tushunib olish mumkin.

Qo‘llanma ertaki muddatlarda turli xildagi gullar yetishtirib, mo‘may daromad olmoqchi bo‘lganlarga hamda gulchilik bilan qiziqqanlarga mo‘ljallanilgan. Agar siz o‘z hayotingizni gullarsiz tasavvur qila olmasangiz, ushbu kitobcha huddi siz uchundir.

ISBN 978-9943-7505-6-2

© Ayupov R.H. 2021

## MUNDARIJA

<b>1. ATIRGUL YETISHTIRISH</b>	<b>5</b>
<b>2. XRIZANTEMALAR</b>	<b>12</b>
<b>3. PIONLAR</b>	<b>23</b>
<b>4. GULSAFSARLAR</b>	<b>24</b>
<b>5. MOYCHECHAK (ROMASHKA, CHO‘PONTELPAK)</b>	<b>25</b>
<b>6. FLOKSLAR</b>	<b>26</b>
<b>7. ASTRALAR</b>	<b>28</b>
<b>8. ANTINIRRIUM</b>	<b>29</b>
<b>9. GULTOJIXO‘ROZ – TSELLOZIYA</b>	<b>30</b>
<b>10. LILIYALAR</b>	<b>31</b>
<b>11. GEORGINALAR</b>	<b>33</b>
<b>12. GLADIOLUSLAR</b>	<b>38</b>
<b>13. PIYOZLI GULLARNI ORANJEREYALARDA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI</b>	<b>46</b>
<b>14.1. Umumiy ma’lumotlar</b>	<b>46</b>
<b>14.2. EKILADIGAN GULPIYOZLARNING SIFATI</b>	<b>54</b>
<b>14.3. GULPIYOZLARGA EKISHDAN AVVAL HARORATLI ISHLOV BERISH</b>	<b>56</b>
<b>14.4. ERTA MUDDATLARDA GUL YETISHTIRISH UCHUN GULPIYOZLARNI EKISH USULLARI VA SHARTLARI</b>	<b>62</b>
<b>14.5. O‘SIMLIKLARNI ILDIZ OTTIRISH VA SOVUTISH</b>	<b>64</b>
<b>14.6. OPANJEREYADA GUL YETISHTIRISH REJIMLARI</b>	<b>65</b>
<b>14.7. TURLI XIL MUDDATLARDA GUL YETISHTIRISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN LOLALARNING NAVLARI</b>	<b>67</b>
<b>14.8. TURLI XIL MUDDATLARDA GUL YETISHTIRISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN GIATSINT NAVLARI</b>	<b>68</b>
<b>14.9. TURLI XIL MUDDATLARDA GUL YETISHTIRISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN NARTSISS NAVLARI</b>	<b>69</b>
<b>14.10. ERTAKI MUDDATLARDA GUL YETISHTIRISH BO‘YICHA OLINGAN NATIJALAR</b>	<b>69</b>
<b>14.11. LOLA NAVLARINING KLASSIFIKATSIYASI</b>	<b>98</b>
<b>15. ISSIQXONALARDAGI GULLAR TAVSIFI VA ULARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI</b>	<b>101</b>
<b>15.1. KALLALAR</b>	<b>102</b>
<b>15.2. LOLALAR</b>	<b>104</b>
<b>15.3. ATIRGULLAR</b>	<b>105</b>
<b>15.4. GERBERLAR</b>	<b>106</b>
<b>15.5. GVOZDIKALAR – CHINNIGULLAR</b>	<b>108</b>
<b>15.6. GLADIOLUSLAR</b>	<b>110</b>

<b>15.7. FREZIYALAR</b>	<b>112</b>
<b>16. GULLARNING KASALLIKLARI VA ZARARKUNANDALARIGA QARSHI KURASHISH</b>	<b>114</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	<b>118</b>

## 1. ATIRGUL YETISHTIRISH



*“Dardsiz odam odam emas, muni anglang,  
Ishqsiz odam hayvon jinsi, buni tinglang”.*  
*Hoja Ahmad Yassaviy*

Gullar malikasi deb nomlanmish go‘zal va nozik atirgullar yetishtirish tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Abu Ali Ibn Sino ham atirgul barglari va na‘matak mevalari yordamida tayyorlanadigan turli hil dori-darmonlar haqida yozib ketgan. Atirgul yordamida turli xil sharqona shirinliklar, murabbolar va ichimliklar tayyorlanadi. Hozirgi davrda atirgulning turli xil navlari parfyumeriya sanoatida homashyo sifatida, xonalarni bezatishda hamda ko‘cha va hiyobonlarni orasta qilish uchun ishlatiladi.

Atirgullarni vegetativ usulda (*novdalaridan*) va generativ usulda – urug‘larini ekish yordamida ko‘paytiriladi. Atirgullarning barcha yovvoyi navlari urug‘lari yordamida ko‘paytiriladi. Bular jumlasiga barcha madaniy atirgullar uchun payvand asosi sifatida ishlatiladigan na‘mataklar ham kiradi. Ekish uchun kerakli bo‘lgan novdalar sifatida atirgulning gullay boshlagan yoki gullab bo‘lgan shohlarining o‘rta yoki yuqori qismlari ishlatiladi. Bu novdalarning kurtaklari hali o‘sib ulgurmagan, 3-4 bo‘ginli va 10-15 sm uzunlikda bo‘lishlari talab qilinadi. Novdalarning pastki qismi kurtak tagidan, ustki qismi esa kurtak ustidan kesiladi. Novdaning pastki bo‘g‘inlardagi barglarning kurtakka yopishgan qismining bandlari 0,5 sm uzunlikda kesib tashlanadi. Uchinchi va to‘rtinchi bo‘ginlardagi barglarning esa tahminan yarmi kesib tashlanadi. Barglarning bunday usulda yo‘qotilishi va kesilishi novdadagi suvning tezda yo‘qolishining va uning qurib qolishining oldini oladi. Novdada qolgan barglarning qismlari esa uni ozuqa elementlari bilan ta‘minlab turish uchun xizmat qiladi. Agarda novdalar ekilgan joyda optimal (*eng yaxshi*) namlik sharoitlari hosil qilingan bo‘lsa, u holda ekilgan novdalarda ko‘proq barglar qoldirish va yuqori bo‘ginlar barglarini kesmaslik ham mumkin. Novdalar yaxshiroq ildiz otishi uchun ular pliyonka

tagida saqlanib, 1-2 atmosfera bosimda suv purkalishi tavsiya qilinadi. Suv purkagichni rezina shlang orqali vodoprovodga ulanadi. Novdalarni yirik qumga, perlitga yoki organik qoldiqlari bo‘lmagan qora tuproq bilan oddiy qum aralashmasiga 1,5-2.0 sm chuqurlashtirib ekiladi. Qatorlardagi novdalar oralig‘i 3-5 sm, qatorlar orasi esa 6-7 sm bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu holda har bir kvadrat metrda 450-600 tagacha atirgul novdalari ekish mumkin bo‘ladi. Novdalarning yaxshi ildiz otishi uchun optimal sharoitlar bo‘lib - havo namligi 85-90%, tuproq va havo harorati esa 20-25 daraja bo‘lishi hamda yetarli darajada yorug‘lik tushishi talab etiladi.

Ildiz otgan novdalar yaxshi o‘sishi uchun oldindan stellajlar, parniklar va yashiklar tayyorlab qo‘yiladi. Ularni eski tuproq qoldiqlaridan tozalanadi, xlorofos bilan dezinfektsiya qilinadi va so‘ngra TMTD poroshogi sepib chiqiladi. So‘ngra tayyor joyga 7-10 sm qalinlikda unumdor tuproq solinadi va uning ustki qismi yaxshilab tekislanadi. Bu qatlamning ustidan esa 2-3 sm qalinlikda yirik daryo qumi to‘shaladi. Ozuqa elementlari bilan boyitilgan tuproq tayyorlash uchun yaxshi chirigan go‘ng va barglar aralashmasiga 20-25% yirik qum qo‘shilib, yaxshilab aralashtiriladi. Atirgul novdalarini ildiz ottirish kuzda, sovuq tushmasidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin. Gulzordagi atirgullarni kuzda kesishdan hosil bo‘lgan bargsiz novdalar teplitaga ekiladi. Ildiz otgan va ildiz tizimi yaxshi rivojlangan novdalar polietilen stakanchalarga ko‘chirib ekiladi va ularni aprel oyida ochiq yer maydoniga ekish mumkin bo‘ladi. Agarda teplitadagi stellajlarda atirgullarning ildiz otgan novdalari o‘stirilayotgan bo‘lsa va keyinchalik atirgul o‘rniga remontant gvozdika ekish rejalashtirilayotgan bo‘lsa, atirgul ko‘chatlarini qazib olib, tepa qismini 80% gacha qirqib, ildizini ozuqali loyga botirib, ochiq yer maydoniga ekish mumkin. Ammo atirgul ko‘chatlarini ekishni uning ildizlarining aksariyat qismi jigarrang tusga kirganidan so‘nggina amalga oshirish mumkin.

Bahorda, atirgul ochiq yer maydonida birinchi marta gullab bo‘lganidan so‘ng, uning novdalarini suv purkatib turgan holda polietilen plyonka tagida ildiz ottirish mumkin. Buning uchun qator qilib yerga joylashtirilgan metall yoki yog‘ochdan yoysimon shaklda yasalgan karkaslar ustiga polietilen plyonka tortiladi va uning tepasiga quyoshning ortiqcha issiqligidan himoyalaniish uchun qoplar

tashlanadi. Havo almashinishi va yuqori haroratni pasaytirish uchun plyonkaning yuqori qismi bir necha joyidan teshib qo'yiladi. Tuproqdan 50 sm yuqorida ingichka truba o'tkazilib, uning har 60-70 sm da suv purkagichlar o'rnatiladi. Bunday sharoitlarda ekilgan atirgul novdalari ikki oylarda yaxshi rivojlangan yer ustki qismi va ildiz tizimi hosil qiladi. Shundan so'ng polietilen plyonka olinib, atirgul ko'chatlari ochiq yer sharoitlariga va quyoshga o'rgatiladi. Shunday qilib, atirgullar kuzgi sovuq tushguniga qadar ochiq yer maydonida o'sadilar va bahorda vegetatsiyani tugallab, barglarini to'kadilar. Shundan so'ng ularni qazib olib, o'lchamlari bo'yicha ajratib, to'p-to'p qilib bog'lanadi va qishda saqlash uchun yerga ko'mib qo'yiladi.

Ba'zi turlarga mansub atirgullarning (*masalan, poliant navlarni*) novdalarini erta bahorda ochiq yer maydoniga ekish ham mumkin. Buning uchun kerakli bo'lgan atirgul novdalari kuzda tayyorlanib, 50-100 tadan qilib bog'lanadi va podvalda qumga ko'mib qo'yiladi. Qumning ustidan novdalar qishda yahlab qolmasligi uchun biror-bir narsa yopib qo'yish kerak bo'ladi. Erta bahorda ularni qumdan qazib olinib, yaxshi saqlanganlari ajratib olinadi, yomonlari esa tashlab yuboriladi. Qishki saqlash davrida ko'pchilik novdalarda kallyuslar yoki ildiz o'simtalarini hosil bo'ladi. Nozik ildiz o'simtalarini qurib qolishdan asrash uchun ularni darhol ozuqaga boy bo'lgan loyga botirib olib, so'ngra yerga ekiladi. Buning uchun 10-15 sm chuqurlikdagi ariqlar qaziladi va ularga ildiz qismi loyga botirilgan atirgul novdachalari bir-biridan 5-7 sm masofada terib chiqiladi. Keyin novdalarni tuproq bilan 90% gacha to'ldiriladi – novdaning eng oxirgi kurtagigina tuproq bilan yopilmay qolishi kerak. Ariqchalarga solingan tuproq zichlashtirilgandan so'ng, ko'chatlar yaxshilab sug'oriladi. Agar yuqoriga ko'rsatilganlarga aniq rioya qilinsa, atirgul novdalari 75-90% gacha ko'karadi va yaxshi rivojlanadi hamda keyinchalik to'laqonli atirgullarga aylanadi.

Atirgulni payvand usuli bilan ko'paytirish uchun sizda yaxshi atirgul ko'chatlarining novdalari va na'matakning payvandtaglik sifatidagi yosh ko'chatlari bo'lishi talab etiladi. Na'matakning ko'chatlari 1-2 yil davomida alohida o'stiriladi. So'ngra na'matak ildizining tepa qismi diametri 0,8-1,2 sm kattalikka etganida, unga kerakli atirgul navining kurtagi payvand qilinadi. 18-22 kundan so'ng

bu kurtaklarning na'matakkaga payvandlanganligi tekshiriladi va payvand ushlagan na'mataklarning boshqa tomonidan yana atirgul kurtagi payvand qilinadi. Erta bahorda payvand qilingan joyning tepasidan na'matak kesib tashlanadi va bu tadbir atirgulning yaxshi rivojlanishini ta'minlab beradi. Bunday usul bilan yetishtirilgan atirgul ko'chatining tagidan o'sib chiqqan yovvoyi o'simtalarni o'z vaqtida yaxshilab kesib tashlanmasa, ushbu o'simtalar atirgulning rivojlanishini susaytirib, 2-3 yildan so'ng uni na'matak ko'chatiga aylantirib qo'yadi yoki uning rivojlanishini ancha sekinlashtiradi.

***Na'matak ko'chatlari tayyorlash uchun*** uning mevalari endi qizara boshlaganda terib olinadi va ular maydalanib, urug'lari chiqarib olinadi. Bu urug'lar yirik qum bilan **1:1** nisbatda aralashtirilib, podvalga yoki chuqurchaga solib qo'yiladi. Stratifikatsiya deb ataladigan ushbu davrda bu urug'-qum aralashmasi doimiy ravishda namlashtirilib va aralashtirilib turiladi. Bunday usulda tayyorlangan urug'larni bahordan ko'ra kech kuzda ekkan ma'qulroq.

Olinadigan gullar sifati atirgul naviga, uning suv, havo va ozuqa bilan ta'minlanishiga bog'liq. Eng yaxshi gullar baland bo'lib o'sadigan navlar – *Super Star, Chorniy Prints, Gloriya Dey va Prezident Gerbert Guver* ga o'xshashlarning gullari hisoblanadi. Atirgullar bir necha yillar davomida bir joyda o'sib, gullaydilar. Yerni chuqur haydash, tuproqni yumshatib turish, yorug'likning yaxshi tushishi va organik o'g'itlar berish ularning yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi. Atirgullarni ochiq va quyosh tushadigan joylarga ekish kerak, chunki salqin joylarda ularning novdalari nozik va cho'ziq bo'lib qoladi hamda atirgullar turli xil kasalliklarga chalinishlari mumkin. Kuzda atirgullar ekiladigan joylar 35 sm chuqurlikkacha chopiq qilinadilar. Gul ekilishidan avval yer yaxshilab tekislanadi va uni rejalashtirib, gullar ekiladigan joylarga qoziqlar qoqib chiqiladi. Keyin bu yerlarda 40x40x40 sm lik chuqurchalar qaziladi. Har bir chuqurchaga 5-7 kG dan chirindi va 2 osh qoshiqdan superfosfat solinib, ular yaxshilab aralashtiriladi. Atirgullarning naviga bog'liq ravishda qatordagi gullar orasidagi masofa 50-70 sm, qatorlar orasi esa 80-120 sm bo'lgani ma'qul. Poliant navli atirgullar zichroq, baland o'sadiganlari esa ochiqroq qilib ekiladi. Gullarni ekishdan oldin ularning qiyshiq, nozik va lat



egan novdalari kesib tashlanib, 10-12 sm uzunlikdagi 3-4 ta baquvvatroq shoxlari tupda bir tekis holda taqsimlanib qoldiriladi. Novdalar kesilayotganda ulardagi tashqariga qaragan kurtaklarini qoldirish kerak. Uzun ildizlari esa biroz qisqartiriladi. Atirgullarning ildizlarini ekishdan avval loy va chirindi aralashmasidan qilingan loyga botirib olinadi. Gul ekishda ko'chatni chuqurchaga shunday holatda qo'yiladiki, uning ildizlari har tomonga bir tekis taralib tursin, egilib qolmasin. So'ngra chuqurchaga tuproq to'ldirilib, ustidan oyoq bilan biroz bosib qo'yiladi. Ekishda atirgul ildiz tizimining eng yuqori qismi yerdan (*tuproq sirtidan*) 5-7 sm pastda bo'lishi lozim. Shundan so'ng atirgulni yaxshilab sug'oriladi va har bir tup atirgul ko'chati atrofiga 15-20 sm balandlikda tuproq uyib qo'yiladi.

Bahorda, issiq kunlar kelishi bilan, atirgullar o'sa boshlaydilar. Bu paytda darhol atirgul atrofidagi uyib qo'yilgan tuproqni olib tashlanmasa, keyinchalik o'sib chiqadigan nozik novdalar shikastlanib qolishlari mumkin. Bu paytda sovuq urgan, shikastlangan va ichkariga yo'nalgan novdalar kesib tashlanadi. Agarda atirgullar kuzda kesilmagan bo'lsalar, gulning yuqori qismlaridagi kurtaklar ommaviy ravishda ko'karib, o'sib keta boshlaydilar va bu ozuqa elementlarining befoyda sarf qilinishiga olib keladi. Shuning uchun bunday ortiqcha va uzun novdalar ham kesib tashlanadi.

Atirgullarni qirqish ham juda muhim agro amal hisoblanadi, chunki bu yumush yuqori sifatli gullar kesib olishga, atirgul butasining chiroyli ko'rinishiga imkon berib, yosh novdalarning tag qismdan osib chiqishini ta'minlaydi va atirgulni yoshartiradi. Kuzda qirqilgan atirgullar yomon qishlaydi degan firkr noto'g'ridir. Poliant atirgullarni ko'p gul olish maqsadida kamroq qirqiladi.

Toshkent shahri sharoitlarida atirgullar ochiq yer maydonida aprelning uchinchi dekadasidan boshlab gullaydilar. Eng birinchi bo'lib *Meri Hart, Talisman, Golden Dawn, Mirandi* navlari gullaydi. Ko'pchilik navlar esa mayning birinchi o'n kunligida gullashni boshlaydilar. Atirgullar yaxshi rivojlanishi va ko'p gullashi uchun ularni doimiy ravishda oziqlantirib turish lozim. Buning uchun 1 kvadrat metr yer maydoniga 50-60 grammdan suyuq yoki quruq nitrofoska o'g'itidan solish mumkin. Sun'iy sug'orish sharoitlarida

har 7-10 kunda qondirib suv berish yaxshi natija beradi. Vegetatsiya davrida ikki marta mikro o'g'itlar bilan oziqlantiriladi (*10 litr suvga 1 ta tabletka eritilib, har bir atirgul tupiga 2-3 litrdan solinadi*). Gulni uzib olishda bitta shohda 3-5 tadan bargni qoldirish kerak. Agar atirgullar gul kesib olish uchun mo'ljallanmagan bo'lsa, u holda gullarni ular ochilib bo'lganidan so'ng kesib tashlanadi. Kesilganidan keyin gullar tahminan 30-35 kunlarda yana ochiladilar. Gulning eng ko'p ochilishi uning birinchi marta gullashida – May oyida yuz beradi. Yozda esa yuqori harorat va past namlik darajasi gullarning sifatiga yomon ta'sir qiladi. Kuzga harorat pasayishi bilan gullarning sifati yana yaxshilanib, rangi va o'lchmi o'zgaradi.

Atirgullarni ertalab nahorda yoki kechki payt kesib olish lozim. Yarim buton holdagi va bir xil navli atirgullar vazalarda juda chiroyli ko'rinadilar. Ularni vazaga solishdan avval tag qismidagi barglar va tikanlarni kesib tashlab, pastki qismini o'tkir pichoq bilan kesib, suvga solish kerak.

Atirgullarning eng yaxshi navlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

***Super Star*** – katta bo'lib o'sadigan, pishiq va to'g'ri bo'lib o'suvchi novdali nav. Barglari to'q-yashil, yaltiroq va go'shtli. Butonlari baland va uchi o'tkirlashgan. Guli bittadan uchtagacha, rangi yaltiroq-qizil va meva hidli. Uzoq vaqt mobaynida va ko'p gullaydi. Teplitsa sharoitlarida eng yaxshi navlardan biri hisoblanadi.

***Sonya-floribunda*** - tupi o'rtacha kattalikda, kompakt, barglari yaltiroq, butonlarining uchi o'tkir, o'rik rangli, juda hidli. Gullarining diametri 11 sm gacha, gulbarglari soni 35-40 tagacha bo'lishi mumkin. Qishda gul yetishtirish uchun eng yaxshi navlardan biri hisoblanadi.

***Gloriya Dey*** – tupi 150 sm gacha balandlikka o'sishi mumkin. Novdalari uzun, baquvvat, qalin, to'q-yashil rangli barglari go'shtli, yaltiroq, tikanlari katta va siyrak. Gul butonlari uchli dumaloq shaklda. Gullarining diametri 15 sm gacha, 56-80 tagacha gulbargli, piyolasifat, kam hidli, gulbarglarining chetlari sarg'ish-pushti rangli.

***Mirandi*** – eng ko'p tarqalgan navlardan biri bo'lib, rangi to'q qizil, juda hidli, 50 tagacha gulbargi bo'ladi. Tuplari o'rtacha o'lchamda, tikanlari kam.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/4765> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/4765> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4765>